

NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SHOHLAR VASFI TALQINI

Tojixon Sabitova,
CHDPU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası
prof. v.b., filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu tezisdá Nizomiy Ganjaviy "Maxzan ul-asror" dostonining to'rtinchi maqolati va Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" asarining uchinchi maqolatidagi "Qari kampirning Sulton Sanjar bilan dostoni" va "Shoh G'oziy va zoli zar" hikoyatlari qiyosiy tahlil etiladi. Nizomiy asaridagi zolim shox va Navoiy talqinidagi adolatli shox xalqiga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligini ma'lum darajada ko'rsatib berilgan.

Kalit so'z: Inson, foniý dunyo, faylasuf, ilohiy-irfoniý, adolat zo'ravonlik, timsol, tafsilot.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЦАРЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НИЗАМИ ГЯНДЖЕВИ И АЛИШЕРА НАВОИ

Таджихон Сабитова,
Кафедра узбекского литературоведения ЧДПУ
и.о. профессора, кандидат филологических наук

Аннотация. В данной диссертации проводится сравнительный анализ четвёртой части эпической поэмы Низами Гянджеви «Махзан ул-асрор» и третьей части произведения Алишера Навои «Хайрат ул-аброр» – повестей «Старуха с султаном Санджаром» и «Шах Гази и жестокий кинжал». В ней в определённой степени показано, как рог тирана в произведении Низами и рог справедливости в интерпретации Навои относились к народу.

Ключевые слова: Человек, смертный мир, философ, божественно-мистическое, справедливость, насилие, символ, деталь.

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF KINGS IN THE WORKS OF NIZAMI GANJAVI AND ALISHER NAVOI

Tajikhon Sabitova,
Department of Uzbek Literary Studies, ChDPU
Acting Professor, Candidate of Philological Sciences

Abstract. In this thesis, a comparative analysis of the fourth proverb of Nizami Ganjavi's epic "Mahzan ul-asror" and the stories "the old woman's epic with Sultan Sanjar" and "the King Gozi and the zoli zar" in the third proverb of Alisher Nawai's "Hayrat ul-abror" are carried out. The tyrant King in Nizami's work and the fair King in Navoi's work shows to some extent how their treated the people of the just branch.

Key words: Human, the world, philosopher, divine, justice violence, embodiment, detail.

Jahon adabiyotining buyuk siymolaridan biri Sharq adabiyotida hamsachilikning asoschisi Nizomiy Ganjaviy va ulug' o'zbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiy o'zlarining "Xamsa"ga kirgan barcha dostonlarida shoxlarning har tomonlama ijobiy fazilatlarini, qilgan ishlari, o'z xalqiga bo'lgan munosabatlarini ro'yi rost ochib berganlar. Ayniqsa, bu ulug' allomalar "Maxzan ul-asror" va "Hayrat ul-abror" dostonlarida shoxlarning o'z fuqarolariga nisbatan adolatpeshalik bilan ish ko'rishlarini talqin etadilar. Bu maqolada bir-biriga mazmunan o'xshash hikoyatlar haqida fikr yuritishni lozim topdik.

Nizomiy Ganjaviy "Maxzan ul-asror" asaridagi to'rtinchi maqolatdan keyin berilgan "Qari kampirning Sulton Sanjar bilan dostoni" shoir tomonidan shoxlarning adolatli bo'lishi haqidagi falsafiy mulohazalari o'zining amaliy ifodasini topganligi ko'rinib turibdi.

"Doston"da keltirilishicha bir begunoh insonni o'ldirib jinoyat sodir bo'lgani, ammo nohaq qon to'kkan gunohkor aniqlanmay jinoyat yopilgani aytiladi. Mana shunday vaziyatda to'satdan yurtdagi fikx sohasi odamlari oyoqqa turg'izilgandan keyin talvasaga tushib qolgan posbonlar bosar tusarini bilmay qolishadi va mast-alast bo'lgan bir posbon himoyasiz bir kampirning kulbasiga bostirib kirib, uni nohaq ayblab, do'pposlab ketadi. Ayni haqsizlikdan qattiq iztirobga tushgan jabirdiyda kampir Sulton Sanjarga shunday murojaat qiladi:

K-ey malik ozarmi tu kam didaam,

V-az tu hamasola sitam didaam.

Shahnai mast omada dar ko'i man,

Zad lagade chand faroro'i man.

Begunah az xona ba ro'yam kashid,

Mo'ykashon bar sari ko'yam kashid...[Nizomiy Ganjaviy, 1]

Mazmuni: Ey Sulton Sanjar! Men sening davroningda rahm shafqat va yoshi ulug'larga izzat hurmatni nihoyatda kam ko'ryapman, biroq zulm-stamingni har bir qadamimda ko'p bora sezyapman. Sening rahmsiz lashkaring mening uyimga bostirib kirib, o'ta ota shafqatsizlarcha kaltaklasa, begunoh bandani qonini toksa, hech qanday sharmu-hayo qilmasdan oqargan sochlarimdan tortsa, men bir g'arib dardlarimni kimga aytay.

Alamzada va bechora ona butun dardini, dili vayronligini podshohga to'kib soladi. Sulton Sanjar davrida mamlakatda zulmu-sitamning avj olgani, beva-bechorayu, yetimlar haq huquqining poymol bo'lib, ularning bor bisotlarini

zo'ravonlik bilan tortib olinayotganligini dalillar va achchiq kinoya bilan izhor etgan onaizor shunday deydi:

3-omadani marg shumore bikun,
Merasadat dast, hisore bikun.
Adli tu qandili shabafro'zi tust,
Mo'nisi fardoi tu imro'zi tust...[Nizomiy Ganjaviy, 2]

Mazmuni: O'lim haq, kelishiga tayyor bo'lganing ma'qul, kunlarni kelib ketishini sanamasdan qo'ling yetguncha yaxshi amallar qilgin. Tunni chiroq yorug' qilgani kabi sening bugungi xayrli ishlaring adolat tarozusining ertangi kuningni xayrli oqibati bo'lur.

Garchi bu aytilgan gaplar yuzlab minglab jafokash onalarning tilidan misralarga ko'chgan bo'lsa-da, ammo ular Ozarbayjonning buyuk so'z san'atkori Nizomiy Ganjaviy qalbidagi nidorlariday aks-sado berar edi. O'z davrining jabr-stamlaridan yuragi tilga pora bo'lgan va bu xo'rliklarning oldini olishning yaxshiroq yo'llarini topa olmagan zabardast shoir yana ollohga qarata iltijo qiladi, bu dunyoda emas, o'lim hamda oxiratdagi manzil obod bo'lishi mumkinligini eslatib o'ziga taskin beradi. Sulton Sanjar kampirga aniq javob aytmaydi. Shoir esa uni takabburlikda, hayolsizlikda ayblash bilan cheklanadi.

Chunki so'z san'atkorlari Nizomiy to'rtinchi maqolotning ibtidosidayoq shoxga murojaat etar ekan shunday misralarni keltiradi:

G'arra ba mulke, ki vafoyash nest
Zinda ba umre, ki baqoyash nest.

Inson bu dunyoda yo'lda ketayotgan karvon tarkibidagi bir yo'lovchi bo'lib, unga ajratilgan, taqdiriga yozilgan nasiba qaysi bekatda nihoyat topishi yolg'iz Ollohgagina ayon xolos. Shunday ekan, shoh ham gado ham shu adolatdan har doim ogoh turmog'i darkor, chunki bu dunyo o'tkinchi, sinov dunyosi. Ayniqsa shohlar bu borada xushyor turishlari lozim, zero saltanat va boylikka mahliyo bo'lib, oxiratdan behabar qolmasliklari darkor dan. Bu dunyoda hatto 1000 yillar (ayrim manbalarda 950 yil) umr nasib etgan Nuh payg'ambar ham dunyoga ustun bo'lolmadi deb ogoh etadi. Shunday ekan insonga berilgan umr sarhadli u mangu yashamas ekan sinov, imtihon dunyosida Odam Ato zurriyotlari o'zidan yaxshi nom, solih amallar qoldirish tadorigini ko'rishi kerak. Ayniqsa shoxlar xalqning farovonligi va osoyishta yashashlarini taminlashi kerakligini, dunyoviy boyliklar ilinjida har qanday qabohatga tayyor turgan saltanat egalarini uyalish, o'sha nopok yo'ldan qaytarish uchun pand nasihatlar beradi. Mamlakatni yaxshi boshqargan podshohning oxirati, oxirgi manzili obod bo'lishligini uqtiradi.

Xamsachilik an'anasida Nizomiy Ganjaviyni o'zining ustози deb bilgan Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"ning 13 bobida shunday yozgan edi:

Menki talab yo'lida quyduм qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam,
Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,
Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum
Nukta surudida ravo bo'lmag'ay,
Buki Navoiyg'a navo bo'lmag'ay. [Alisher Navoiy,3]

Agar e'tibor bersak buyuk shoir "Panj ganj" yaratib, xamsachilik an'anasini boshlab bergan Ozarbayjon mutafakkiri Nizomiy Ganjaviyni va uni rivojlantirib yuqori taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqqan asli Shahrizabzlik Hindistonda yashagan Amir Xusrav Dehlaviy, hamda ustози va hammaslaki Xurosonlik Nuriddin Abdurahmon Jomiylarni o'zining ma'naviy rahnamolari sifatida e'tirof etadi.

"Maxzan ul-asror" kabi asosiy negizini 20 maqolat tashkil etuvchi "Hayrat ul-abror" Alisher Navoiyni o'lmas "Xamsa"sining muqaddimaviy dostonidir. Bu ikki asarning bir-biriga monandliklari "Hayrat ul-abror"ning sultonlar zikriga bag'ishlangan uchinchi maqolati hamda "Shohi G'oziy va zoli zar hikoyati" ning qiyosiy tahlili misolida yorqin ko'rish mumkin. Navoiy muqaddimaviy dostonining ayni maqolatida hukmdorlar odil va zolim shoxlar tarzida tasnif etiladi.

Yuqorida ayrimlarini qayd etganimiz jihatlar sakson ikki misralik she'riy hikoyatda mantiqiy davomini topadi. Go'yo shu kichik hikoyat misolida ulug' shoir "shohi g'oziy qanday bo'lishi kerak?" degan savolga javob topadi. She'riy hikoyat zamirida Sulton Husayn Boyqaroning tarixiy timsoli yotadi. Naql qilinishicha, Sulton Husayn Boyqaro Xuroson davlatini qo'lga kiritish ilinjida jang olib borgan yillarda yurtdagi bir kampirning yakkayu yagona o'g'li ham shahid bo'ladi. Toju taxt egallangach, kampir ham, uning o'g'li ham unutiladi. Tirikchilik tashvishlaridan ezilgan, boquvchisi yo'q kampir mahallasiga podshoh kelishini bilib, uning istiqboliga chiqadi va u bilan shar'iy bahsi borligini ma'lum qiladi. Alqissa, masala shariat qozisi ishtirokida o'rganiladi va kampir haq bo'lib chiqadi.

Nizomiy dostonida kampirning arziini tinglagan saltanat sohibi tayinli javob bermaydi. Alisher Navoiy talqinidagi shoh esa gunohini bo'yniga oladi va onaga javob qilarkan, aytadi:

Dedi: «Qisos aylasang olingda bosh,
Siymni ol, gar g'arazingdur maosh.
Men edim ul amrda beixtiyor,
Har ne sen etsang manga ne ixtiyor»

Ravshan, masala ijobiy hal etiladi: shohning adolatini ko'rgan kampir uning gunohini kechiradi, ona oltin to'la hamyonni oladi va el o'rtasida "zoli zar" (tilla kampir) nomi bilan shuxrat topadi...

Adolat buyuk ish. Sultonlik maqomi allohdan berilgan, sultonning asosiy vazifasi zulmga barham berib, mamlakatda adolat o'rnatib fuqarolariga g'amxo'rlik qilishdir. Shoir agar shox xato qilsa xatosini tuzatish shartligini aytgan, bu fikrini to'ldirish hamda asoslash uchun tilla kampir hikoyatini keltirgan.

"Hayrat ul-abror" ning sharhida bu haqda quyidagi fikrlarni tahlil etilganligini ko'ramiz. Davlat boshliqlari - hukmdorlar, sultonlar, shohlar va hokazolar ham qonun oldida, adolat oldida teng bo'lishi shart. Adolatli qonun davlat ichida hamma narsadan - shaxslardan, qudratli kuchlardan yuqori tursagina, bu davlatning chinakam qudratiga bir isbotdir. Hikoyatda sulton Husaynning muddaiy (da'vogar) kampir bilan qozi huzuriga borishi, u bilan bir qatorda tiz cho'kib o'tirishi, o'z xatosini tan olib, qozi hukmiga itoat etishi adolatli qonun oldida shoh ham taslim ekanligiga bir dalil hisoblanadi.

Qozi kampirdan da'vo uchun ikki guvoh talab etganida muddaiy shohning insofi va adolatini guvohlikka chaqiradi. Bir qaraganda, bu erish tuyulishi mumkin. Lekin masalaning nozik nuqtasi ham shu. Chunki qo'lida qudrat bo'lgan insonni faqat shu ikki narsa - Adolat va Insof to'g'ri yo'lga solib turishi mumkin. Bu ikki fazilatdan mahrum hukmdor hech qachon buyuk hukmdor bo'la olmaydi. Zotan, saltanat rahbarini dunyo hayotida so'roq va tergov qiladigan o'zidan bo'lak kuch yo'q. Shoh G'oziy insof va adolati oldida qilgan jinoyatidan tona olmadi va iqror bo'ldi.

Shoh G'oziy bu hukm qarshisida so'zsiz bosh egib: "Shariat hukmni shunday chiqarsa, shiati Nabiy (sollallohu alayhi va sallam) hukmiga jonim fido", - degan taslimiyati zahirida ulkan ma'no yashiringan. Qozi o'z nafsidan kelib chiqib hukm qilgani yo'q. Qozi sultondan yoki boshqa biror insondan hayiqmayapti. Pora olmayapti. Ilohiy Qonunga itoat qilyapti va hukm beryapti. Shoh ham bu hukmga bosh egib, ilohiy hukm qoshida jon fido etishga tayyor. Bu - inson hayotining ilohiy qonunlarga bog'lanish nuqtasidir.

Bu jo'mardlik oldida tul kampirning yarim ko'ngli eriydi, odil hukmdorga nafaqat yagona o'g'lini, balki o'zini ham qurbon etishini bildiradi:

Tar yigitim qildi fido jon sanga

Men qari joni dog'i qurbon sanga.

Davlat va xalq orasida ko'p hollarda jarliklar hosil bo'ladi. Bu davlat rahbarlarining kibri, o'z vazifasini unutib, nafsiga qul bo'lganligi orqasidan ro'y beradi. Davlat, davlat rahbari, davlat amaldorlari va xalqning o'zaro muhabbat va ishonch bilan ish ko'rishi juda noyob hodisadir. Hikoyatga ko'ra, kampirning

shohga qurbon bo'lishga tayyorligi haqidagi izhor davlat va xalq orasidagi ko'prik adolat ekanligini ko'rsatadi. Adolatni unutgan davlat xalq nafratiga uchraydi. Xalq nafratiga uchragan davlat tanazzulga yuz tutadi. Alisher Navoiy buni chuqur tushungani va hayotiy tajribalari bilan bunga guvoh bo'lgani uchun shoh G'oziyning adolatini ko'rsatish orqali sultonlarni odillikka da'vat qiladi.

Hikoyatni bayon qilish avvalida zolim hukmdorning zulmiga tavba qilishi to'g'risida gap bor edi. Shoh G'oziyning begunoh yigitni o'ldirishi zulm edi, bu zulmning badali qarshisida u jonini tikdi. Shu bilan adolat qaror topdi. Zotan, jon o'rta qo'yilmasa, adolatga erishilmaydi.

Alisher Navoiy mazkur hikoyat vositasida sulton Husaynga davlat ishlarida qat'iyat bilan adolat o'rnatmoq shartligini tushuntirgan. Zulm yo'lga kirilgan bo'lsa, undan chiqmoq mumkin. Xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, tan olmoq va ularni tuzatmoq imkoni bor. Agar zolim zulm qilayotganligini anglay turib, bu ishidan to'xtamasa, uni qiyomat kuni, shubhasiz, Allohning hisob-kitobi, adolati kutib turibdi.

Nazardan o'tkazganimiz ixcham tafsilotlardan ayonlashadiki, sayyor voqealar tizmasidan istifoda etgan har bir ijodkor uni o'z ijodini ro'yobga chiqarish uchun yo'naltirgan va ularga o'zicha sayqal bergan. Bunday holatlarda takror, tarjima yoxud ko'chirish emas, balki ijodiylik, mavzuga yangicha yondashuv va mutlaqo toza maqsadda sayqal berish yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Низомий Ганжавий. Куллиёт. Дар панж жилд. Жилди панжум.- Душанбе: Ирфон, 1984. саҳ.324.
2. Низомий Ганжавий. Куллиёт. Дар панж жилд. Жилди панжум.- Душанбе: Ирфон, 1984. саҳ.326.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. "Фан", Тошкент-1991, Б.55-56
4. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. Матн, шарх, насрий баён, луғат. 2-китоб. "Tamaddun". Тошкент.2021. Б-125-127.
5. Ibroximov, F. (2024). FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI HUQUQIY MADANIYATINING AHAMIYATI. Farg'ona davlat universiteti, (4), 41-41.
6. Bekinov, O. T. (2025). THE IMPACT OF CYBERSPACE AND HUMAN-TECHNOLOGY INTEGRATION ON SOCIAL LIFE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS. Экономика и социум, (6-2 (133)), 2036-2040.
7. Ibrokhimov, F. A. (2025). POSSIBILITIES OF USING EFFECTIVE MODERN METHODS IN TEACHING PHILOSOPHICAL SCIENCES. Экономика и социум, (6-2 (133)), 2045-2049.

8.Yoldoshev, A. (2025). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN. Экономика и социум, (6-2 (133)), 2085-2090.

9.Йулдошев, А. (2023). Значение кластерного подхода в образовании. Miasto Przyszlosci, 31.

10. Gaffarova, G.G. (2025). The phenomenon of the «Virtue man» in the scientific heritage of Al-Farobi. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (146), 76-80.

11. Gulamzhanovna, G. G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685–690. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4698>

12. G'affarova G.G' Kreativlik falsafasi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024. 6-son. 280-283-b

13. G'affarova G.G'. Kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-8-son. 133-137-b.